

**THE CONCEPT OF "FATHERLAND" IS ANALYZED IN THE NOVEL "MAKON
ISTAB" BY JENNY ERPENBECK**

Hayatova Dilafroz Zoyirovna

Senior teacher of the Department of German Philology at Bukhara State University

d.z.hayotova@buxdu.uz

ABSTRACT: One of the current topics of modern linguistics is the concept. This term is one of the important categories of cognitive linguistics and linguistic culture. The article is devoted to the current state of the concept of Heimat "Homeland", which occupies a special place in modern scientific research and German culture in general, and the discourse that is formed during its "eternal" development.

Key words and phrases: Cognitive linguistics, concept, diachronic, concept, logic.

**JENNI ERPENBEKNING "MAKON ISTAB" ROMANIDA "VATAN" KONSEPTI
TAHLILI**

Hayotova Dilafro'z Zoyirovna

Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

d.z.hayotova@buxdu.uz

ANNOTATSIYA: Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu -konseptdir. Bu termin kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Maqola zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda va umuman nemis madaniyatida alohida o'rin tutadigan Heimat "Vatan" tushunchasining hozirgi holati va uning "abadiy" rivojlanishi jarayonida shakllanayotgan diskursga bag'ishlangan.

Tayanch so'z va iboralar: Kognitiv tilshunoslik, konsept, diaxronik, tushuncha, mantiqiy.

Kognitiv lingvistikaning bazaviy tushunchasi konsept hisoblanadi, ya'ni uning mazmuni, har qanday tilda so'zlashuvchi xalq madaniy tarzining o'ziga xos o'chog'i. So'zlashuvchining dunyoni anglashi natijasida hosil bo'ladigan konseptlar umumlashmasi konseptosfera deb ataladi. Tilning boyligi faqat uning leksikasi bilan emas, balki, millatning konseptosferasi bilan ham o'lchanadi. Konseptlarga madaniyat omili sifatida ham qaraladi, chunki ular uzoq o'tmishdan hozirgi davrga qadar faylasuflar, yozuvchilar va oddiy xalqning qarashlari orqali taraqqiyotga xizmat qilgan. Hozirda tilshunoslik nazariyasi faqat til nima degan savolga emas, balki uning qanday qurilganiga ham javob berishi lozim. Mana shulardan kelib chiqib kognitiv lingvistika o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: 1) Tafakkur jarayonida tilning rolini aniqlash;

- 2) Kognitiv jarayonlarda til bilan bog'liq bilimlar modelini yaratish;
- 3) Nutqda madaniyat omili sifatida qatnashishining uslublarini aniqlash;
- 4) Konseptosferani tashkil etuvchi universal konseptlar tizimi qurilmasini izohlab berish;
- 5) Tilning dunyoviy dolzarb muammolarini topish;
- 6) Milliy til dunyo manzarasi tasvirini yaratish.

Ushbu masalalarning u yoki bu yo'sinda mental jarayon bilan bog'liqligini inobatga oladigan bo'lsak, kognitiv lingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti konsept ekanligi ma'lum bo'ladi.

Yu.S.Stepanov konseptni shunday ta'riflaydi: «inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan tushuncha». Shuningdek, Yu.S.Stepanov ta'kidlaganidek, «konsept» bu «ma'lum bir so'z bilan birga keladigan g'oyalar, tushunchalar, bilimlar, uyushmalar, tajribalar to'plami». (Cognition-bilish, cognize-tushunmoq, bilmoq cognitive-bilishga oid, cognition-aql, tafakkur). Insonning dunyoni, voqelikni bilishi, uni idrok etishida uning faoliyati natijasi hisoblangan tafakkurning o'rnini alohida ta'kidlash kerak.

Tadqiqot obyektidagi Jenni Erpenbek “Makon istab” romanida “Vatan” konsepti 27 chastotada qo’llanilgan bo’lib boshqa asarlarga nisbatan vatan tasnifidagi rang baranglik takrorlanmas tushunchalarni kuzatish mumkin.


Asarda Vatan konseptini muallif quyidagicha ta’riflaydi: “Uning kasbi — Vatanni rejalashtirish. Vatan — aslida uy, uning kasbi shu — ikkalasi. Bir hovuch havo girdida to’rt devor tikkalash, bir hovuchgina havoni toshdek mustahkam to’sinlar bilan, ichida nima bo’lsa, hamma narsasi bilan to’sish, o’rab qo’yish, bir so’z bilan aytganda o’ziniki qilish, o’z makoniga aylantirish, bir hovuch havoni tuproqqa qo’shib, makon yaratish, o’sha makonga o’zini qo’shish, o’zi ishtirokida atrofida olam yaratish —uning kasbi.”¹ Jumlada vatan konsepti quyidagicha keltiriladi.




Mohiyatini yanada chuqurroq ochish, unga nazariy jihatdan yondoshish uchun “konsept” tushunchasining ma’nosi, mazmuni, chegarasi yoki xarakterini belgilab olish ayni muddao bo’ladi. “Qizchanning jonsiz tanasi osmonga qaragancha quduqda yotardi... Bir kungina oldin jondek aziz jigargo’shasi — singlisi u bilan bitta karavotda yotib nafas olayotgandi... Shundan beri yigit qachonlardir xo’rlanganini unutilmasdi, vatanning, makonning himoyasi uchun o’zi nafratlangan, umrida kela olmaydigan begona yurtlarda yuribdi. Uni qandaydir kuch faqat oldinga undardi, bu kuch gohida o’zidan chiqsa, ba’zan haliyam bola tanasidan chiqardi. O’sha kuch uni dunyo xaritasidan nemislarni olib tashlashga, Shveytsariya, Fransiya yoki Avstriya va Italiya orqali O’rta yer dengizigacha yoki Atlantikagacha, xullas, it topmas joylargacha surib chiqarishni istardi, toki dushman harakati nihoyasiga yetsin.”² Asarda voqealar rivoji turlicha bo’lganligi bois, “vatan” konsepti asar qahramonlarining talqinida ham o’zgacha kechadi. Jumlada konsept yadrosini vatan tashkil etsada uning atrofida berilgan so’z birikmalari periferiyani tashkil etib, voqelikning badiiy doirasini ochib berishga xizmat qilmoqda

¹ Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -35.

² Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -94.



Til birliklarining muallif hamda qahramon tomonidan qayta anglanishi ideal etalonni hosil qiladi, bizningcha. “Xonaga kirganida ichida nima bor ekan deb eshikni ochsa, palto osig‘liq turgan ekan. O‘zi ham bilmagani holda qo‘liga olib, hidlab ko‘rsa, undan qalampir, kamfara isi kelayotgandi, ko‘zgu esa uning kalta qilib olingan sochlaridan to ozib ketgan oyoqlariga zo‘rg‘a ilashib turgan etiklarigacha ko‘rsatdi. Darvoqe, u shu etiklari bilan o‘z vatanidan shu yergacha kelgandi, shularning hammasi nemislar ko‘zgosida aks etib turardi, keyin yigit eshikni yana yopib qo‘ydi”³.




“Vatan” konseptidagi birliklar turli darajadagi periferiya qatlamlarini konseptoferani tashkil etmoqda.

Ramz bilan bog‘liq jumalardagi “vatan” konsepti “Bolaligi vatani bilan tugagandek edi. Uning yurtida qizlar sochlarini ikkita qilib o‘rib olishadi yoki chambarak qiladilar-da, qizil bog‘ich boylaydilar va uchburchak bo‘yinbog‘ taqishadi. Ular yurayotganda boshlarini tik tutadilar, u hali Germaniyada hech bir ayolning bunday yurishini ko‘rmagan, xuddi atrofdagi hamma narsa

³Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Ҳафиза Қўчқорова таржимаси -95.

ularnikidek⁴ deya keltirilgan tahlilga tortadigan bo'lsak, konseptning tag zamiridagi vatanni ko'ramiz.



“Vatan” konsepti bilan vatan sog'inchini ifoda etib kelayotgan so'z birikmalari jamlanmasi o'xshatishlar istilosida chuqur tuyg'ular bilan tasvirlangan: “Vataniga ketmoqchi, faqat shu edi uning istagi”, — degan edi hokim hech narsani ko'rmay turib, hamma narsasini bermoqchi bo'lgan boladek, ammo o'sha qisqa daqiqalarda, ya'ni bu gaplarni yozayotganda qo'llari bilan yuzini bekitib, lavozimi tufayli bajarishi kerak bo'lgan burchlarini ham bir dam unutgan bo'lsa kerak. “Vatan, kut, yaqinda qaytaman”. Hokim biroz muddat ikkilanib turdi-da, keyin yana bir muddatga lavozimida qolish uchun ariza yozdi (ular har 4 yilda saylanadilar)⁵.

Shundayin vatan sog'inchi ufurgan gapda ham: “Bu gaplar ayolga ham tanish, har safar vatanidan uzoqda bo'lganida, nafaqat immigratsiya paytida, boshqa holatlarda ham, “yurtimga ketishni istayman, faqat yurtimga”, deb uning o'zi ham ko'p o'ylardi, Uralda hislari, vatanga bo'lgan sog'inchi haqida yozardi. Ammo bitta yurt, mamlakatda qo'nim topmadi, aksincha, insonlar, insoniyat unga vatan bo'ldi, yurtga intilishini esa u vatan sog'inchi deb atadi.”⁶

“Momoqaymoq va hatto polaponlar ham xuddi vatanidagidek. Endi u keksa ayol, turmush o'rtog'ining qirq yil mobaynida unga aytib kelayotgan gaplari bilan keksaydi. Erining qishlog'idagi momoqaymoq ham uning yurti — Ukrainadagi singari, hatto so'fitor'g'ay ham”⁷.


Yuqoridagi jummalarda “vatan” konsepti quyidagicha o'z periferiyasini topmoqda.

⁴ Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -99.

⁵ Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -112.

⁶ Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -126.

⁷ Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Хафиза Кўчқорова таржимаси -126.



Shuningdek, asarni tadqiq etar ekanmiz makon vatan konseptining asosiy yadrosi sifatida kelishi kuzatiladi.

“Inson tabiati qiziq aslida. Hayotining ma’lum qismi o’tgan bir uyga – aziz bir odamichalik MEHR qo’yadi, avaylaydi, umrining aziz onlari muhrlanayotgan oshyonining har qarich yerini qalbi ardog’ida asraydi, o’shanday azizligicha o’zidan keyin dilbandi – farzandiga qoldirmoq istaydi, shu tarzda bitta uy avloddan avlodga o’shanday mehr ila tortiq etiladi. Har bir uyning o’z tarixi, o’sha tarixni yaratayotgan odami – uy egasi bo’ladi. Inson egalik qila olayotgani – o’zi uchun tuprog’i muqaddas bir parcha yerga bog’lanar ekan, o’sha yer timsolida uning VATANI borligi, o’ziga tegishli MAKON ni asrab-avaylaganida yurtiga qattiq mehr berayotganini inson ba’zan anglamaydi ham... Vatanning ostonadan boshlanishi shumikan?”⁸ V.A.Maslova, shuningdek, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi xususan, o’sha xalq tilida qo’llanuvchi o’xshatishlarda ham yaqol namoyon bo’lishini ta’kidlaydi⁹. Olimaning bu fikrini asardagi tilidagi turg’un o’xshatishlar ham tasdiqlaydi.

Chunonchi, so’z ma’nosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda so’zlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzlari va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo’lishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni so’zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun unda so’zlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida “pishirib”, o’z tilida (nutqida) tinglovchiga bekam-ko’st uzatishi bilan bog’liq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo’yishni talab qilmoqda.

REFERENCES

1. Jenny Erpenbeck, Heimsuchung_ btb Verlag in der Penguin Random House Verlagsgruppe Copyright © 2007 by Eichborn AG, Frankfurt am Main
2. Jenni Erpenbek MAKON ISTAB Roman Hafiza Qo’chqorova tarjimasini -184

⁸Женни Эрпенбек МАКОН ИСТАБ Роман Ҳафиза Қўчқорова таржимаси -184.

⁹ Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

3. Hayotova D. KONSEPT VA TUSHUNCHA MUNOSABATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
4. Zoyirovna H. D. The Role of the Concept in Modern Linguistics and Considerations about the Concept //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 134-138.
5. Zoyirovna H. D. Studies on the Concept of “Motherland”(“Heimat”) in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-158.
6. Hayotova D. The Role of the Concept in Modern Linguistics and Considerations about the Concept //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 33. – №. 33.
7. Hayotova D. National-cultural linguoculturological features of the concept of heimat (homeland) in german and uzbek languages //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Hayotova D. Study of Linguoculturology in Linguistics //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.
9. Hayotova D. LINGUCULTUROLOGICAL INTERPRETATION AND STUDY OF THE CONCEPT" VATAN (HOMELAND)" IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
10. Zoyirovna K. D. Study of Linguoculturology in Linguistics //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 292-294.
11. Zoyirovna H. D. Linguoculturological Interpretation and Study of the Concept" Vatan (Homeland)" in German and Uzbek Languages //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
12. Hayotova D. National-cultural linguoculturological features of the concept of heimat (homeland) in german and uzbek languages //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Hayotova D. " VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
14. Hayotova D. TUSHUNCHA VA SO'Z MUNOSABATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.
15. Hayotova D. NEMIS VA O 'ZBEK TILLARIDA "VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIG TALQINI VA TADQIQI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
16. Hayotova D. ZAMONAVIY NEMIS TILINI O'QITISHDA PREDLOGLARNI O'RGATISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
17. Hayotova D. KONSEPT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 42. – №. 42.
18. Hayotova D. NEMIS TILINI" PADLET" VERTUAL DOSKASI ORQALI O'RGATISHNING AFZALLIGI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
19. Hayotova D. Nemis tilini o'qitishda innovatsion internet-texnologiyalari va ulardan samarali foydalanish usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
20. Hayotova D. KONSEPT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 42. – №. 42.

21. Hayotova D. " VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
22. Zoyirovna H. D. CONCEPT AND DISCOURSE OF “HEIMAT” //INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 43-57.
23. Дуринова Г.В. Слово как объект исторической семантики: Гражданин и общество в русском языке второй половины XVIII – первой трети XIX в.: Дис. ... канд.филол. наук. – М., 2015. – 246 с.
24. Игнатова Е.М. Концепт «Родина» в идеологическом дискурсе: (На материале немецкой политической пропаганды 20–40-х годов XX в.): Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – М., 2008. – 21 с.
25. Козеллек Р. Введение // Словарь основных исторических понятий. – М.: Новое литературное обозрение, 2014. – Т. 1. – С. 23–45.
26. Латышев Л.К. Технология перевода. – М., 2000. – 280 с.Лотман Ю.М. Память в культурологическом освещении // Чему учатся люди: Статьи и заметки. – М., 2010. – С. 249–255.
27. Лотман Ю.М. Память культуры // Чему учатся люди: Статьи и заметки. – М.,2010 а. – С. 256–269.
28. Фадеева Г.М. О понятии вневременный дискурс // Дискурс как социальная деятельность. – М., 2015. – С. 606–616. – Режим доступа: <http://www.vestnikmslu.ru/Vest-2015/Vest15-717z.pdf> (Дата обращения: 22.02.2017.)Arzt T. Zehn Versuche über Heimat zu sprechen. – Mode of access: <https://www.thomasarzt.at/2016/09/01/zehn-versuche-%C3%BCber-heimat-zusprechen> (Дата обращения: 09.02.2017.)
29. Bastian A. Der Heimat-Begriff : Eine begriffsgeschichtliche Untersuchung in verschiedenen Funktionsbereichen der deutschen Sprache. – Tübingen, 1995. – 238 S.
30. Bausinger H. Auf dem Wege zu einem neuen, aktiven Heimatverständnis // Heimat heute. – Stuttgart etc., 1984. – S. 11–27.
31. Busse D. Semantik. – Paderborn: Wilhelm Fink, 2009. – 144 S.Das schönste deutsche Wort 2004. – Mode of access: <http://www.deutschersprachrat.de/index.php?id=300> (Дата обращения: 25.02.2017.)Die Semantik der neuen deutschen Außenpolitik / Hrsg. Hellmann G., Weber Chr.,Sauer F. – Wiesbaden, 2008. – 215 S. Es gilt das gesprochene Wort: Oral history und Zeitgeschichte heute / Hrsg. Andresen K.,Apel L., Heinsohn K.– Göttingen, 2015. – 222 S
32. Girnth H. Sprache und Sprachverwendung in der Politik. – Tübingen, 2002. – 127 S.Gulbrandsen T. Und ewig singen die Wälder: Das Erbe von Björndal. –München,1935. – 275 S.
33. Hamann O. Russisch für: Heimat // Magazin: Stiftung Preußischer Kulturbesitz (SPK). – Berlin, 2016. – H. 1. – S. 57.Heimat: Konturen und Konjunktoren eines umstrittenen Konzepts / Hrsg. Gebhard G.,Geisler O., Schröter S. – Bielefeld, 2007. – 198 S.
34. Hüppauf B. Heimat – die Wiederkehr eines verpönten Wortes. Ein Populärmythos imZeitalter der Globalisierung // Heimat: Konturen und Konjunktoren eines umstrittenen Konzepts. – Bielefeld, 2007. – S. 109–140.
35. Jung M. Linguistische Diskursgeschichte // Öffentlicher Sprachgebrauch: Praktische und historische Perspektiven: Georg Stötzel zum 60. Geburtstag gewidmet. – Opladen, 1996. – S. 453–472.Kampfvokabel «Heimat». – Mode of access:http://www.ots.at/presseaussendung/OTS_20160902_OTSO159/kampfvokabel-heimat (Дата обращения: 09.02.2017.)

36. Loest E. Katerfrühstück. – Leipzig: Goldmann,1992. – 240 S.
37. Schmidt Th. «Deutschland, einig Vaterland!». – Mode of access: [http://www.deutschlandradiokultur.de/deutsche-rufe-5-8-deutschland-einigvaterland.1001.de.html?dram:article_id=293560] (Дата обращения: 05.03.2017.)
38. Schwanitz D. Der Campus. – Frankfurt a.M. etc.: Goldmann, 1996. – 383 S.
39. Wehling H.-G. Vorwort // Heimat heute. – Stuttgart etc., 1984. – S. 7–9.
40. Zöllner R. Heimat: Annäherung an ein Gefühl. – Bonn, 2015. – 231 S.